

«HUQUQIY MADANIYATNI TASHKIL ETISH ASOSLARI»

*Ma`murova Dilaferuz Avazbekovna*

*Andijon viloyati Paxtaobod tumani*

*Xalq ta`limi bo`limiga qarashli 13-umumta`lim maktabi*

*2-toifali Tarbiya va Huquq fani o`qituvchisi hamda*

*Ma`naviy va ma`rifiy ishlari bo`yicha direktor o`ribbosari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "Huquqiy madaniyatni tashkil etish asoslari" haqida fikr yuritilib maqolada huquqiy madaniyat bilan birgalikda huquqiy ongini ham rivojlantirib borishi kerakligi, yosh avlodlar huquqiy madaniyati, huquqiy ongini, nafaqat guruh huquqiy madaniyat va jamiyatdagi huquqiy madaniyatini bilib olishlari kerakligi batafsil tushuntirilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniyat, yuridik norma, huquqiy ong, guruh huquqiy madaniyat, jamiyat huquqiy madaniyati.

**Аннотация:** В данной статье, размышляя об «Основах организации правовой культуры», в статье подробно объясняется, что вместе с правовой культурой должно развиваться правосознание, что молодые поколения должны овладевать правовой культурой, правосознанием, а не только групповой правовой культурой. И правовой культуры в обществе.

**Ключевые слова:** культура, правовая норма, правосознание, групповая правовая культура, правовая культура общества.

**Annotation:** In this article, thinking about the «Fundamentals of creating legal culture», the article explains in detail that together with legal culture, legal consciousness should be developed, that young generations should learn legal culture, legal consciousness, not only group legal culture and legal culture in society.

**Key words:** culture, legal norm, legal consciousness, group legal culture, legal culture of society.

Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishdek demokratik oliy maqsad tomon borayotgan mustaqil o'zbekiston davlati, uning qadimgi Turon zaminida davlatchilik va huquqning paydo bo'lishi boy tarixini o'rganish, tahlil qilish va davlatchilik – huquqiy merosini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamonning har bir yirik masalasi hayotning qaysi sohasida bo'lmasin, jumladan, davlat va huquqiy qurilish sohasida ham mavjud bo'lgan tarixiy tajribalarni hisobga olishimiz kerak. Chunki tarixiy tajribalardan unimli foydalanmasdan, chuqur hodisalarни bilmasdan turib, hozirgi voqeylekni to'g'ri tushunish, keljakni ko'ra bilish mumkun emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi ... Insonni

hushyorlikka o'gatadi , irodasini mustahkamlaydi . Inson uchun tarixdan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir “. Huquqiy madaniyat –bu kishilarning huquqiy bilim darjasи, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir . Huquqiy madaniyat jamiyat umumiylар madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir. Huquqiy madaniyat bu zamon talabi . Zamonaviy ijtimoiy –iqitisodiy sharoitda huquqiy madaniyat kerak. Bu huquqiy madaniyat yuksak intelluktual salohiyatni talab etadigan yuridik kasb egasi uchun kerak . Jamiyatning huquqiy hayoti , uning huquqiy voqeysligi , normativ – huquqiy hujjatlar , huquqiy ong rivojida erishilganlik darajasini ifodalash bilan bir qatorda ma'naviy –axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topadigan qonunga itoatgo'ylik va mamlakatda huquqiy - tartibot muhitini o'rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishini tushunamiz . Nafaqat yuridik shaxs egasi uchun balki jamiyatdagi barcha shaxslarga ya'ni millati , irqi , tanasining rangi , ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha insonlarga huquqiy madaniyat kerak . Shaxs huquqiy madaniyati, huquqni hurmat qilish , huquqdan mayor darajada xabardorlikni nazoratda tutadi .Huquqiy madaniyatga ega shaxslar :

Yuridik normalarni muayyan darajada bilishi . Ijobiy huquqiy ong egasi bo'lishi , ya'ni huquqni hurmat qilishi. Huquqni hurmat qilishga asoslangan xulq – atvor bilan tavsiflanishi shaxslarning huquqiy madaniyatini ya'nada yuksakroq erishishiga yordam beradi. Nafaqat shaxs huquqiy madaniyati balki guruh huquqiy madaniyati , jamiyatning huquqiy madaniyati , odatdagi daraja huquqiy madaniyatini , kasbiy darajadagi huquqiy madaniyat , nazariy darajadagi huquqiy madaniyatliga bo'lishimiz mumkin .Guruh huquqiy madaniyati shaxslarning ayrim ijtimoiy guruhlarga , xususan , professional yuristlarga xos . chunki u mazkur guruhning huquqiy ongigga bog'liq . Unga jamiyatda e'tirof etilgan huquqiy qadriyatlar , ayrim shaxslarning huquqiy intilishlari bevosita ta'sir ko'rsatadi .Jamiyatning huquqiy madaniyati esa jamiyat yaratgan ma'naviy qadriyatlarning tarkibiy qismidir . Shu boisdan u o'z ichiga huquqiy muloqot va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy vositalaridan foydalanish bilan bog'liq xulq – atvor hamda harakatlarning barcha turlarini qamrab oladi . Uning ijtimoiy ong darjasи , qonunchilikning holati va xususiyati , mamlakatda mavjud huquqiy tartibotning mustahkamlik darajasidir. Jamiyatning huquqiy madaniyati aholining umumiylар madaniyati aholining umumiylар madaniy darjasи bilan bevosita bog'liq bo'ladi . Aholi madaniyatining siyosiy , ma'naviy , estetik ,va boshqa turlari bilan o'zaro aloqador bo'lishi hamda inson (fuqaro) huquqlari va erkinliklarining to'liqligi , rivojlanganligi va ta'minlanganligi, qonuniylik , huquqiy tartibot holati . Jamiyatda yuridik fan va yuridik ta'limning rivojlanish darjasи bilan tavsiflanishi mumkin .Odatiy darajadagi huquqiy madaniyatli kishilarning kundalik hayot

doirasi bilan chegaralanadi . Kishilar undan o'z kundalik faoliyatida subyektiv huquqlarini ro'yobga chiqarish , zimmalariga yuklab vazifalarni bajarishda foydalanishlari mumkin bo'ladi. Kasbiy darajadagi huquqiy madaniyatli shaxslar yuridik faoliyat bilan o'z kasabiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida doimiy shug'ullanuvchi shaxslarga xosdir . Chunki u mazkur daraja huquqni bilish va huquqiy muammolar , huquqiy faoliyatning maqsad va vazifalarini tushinishi darajasining yuqoriligini bilib tavsiflanadi.Chunki huquqiy muammolarini huquqiy faoliyatini maqsadini yahshi tushunishiga yordam beruvchi kaspiy darajadir. Nazariy daraja u nafaqat huquqni bilish balki uning teran xossalari va qadriyatlar, amal qilish mexanizimi, huquqning samaradorligiga ta'sir ko`rsatuvchi omillarni tushunishning yuksak darajasidir. Chunki nazariy daraja huquqni bilish va unga amal qilishni o`rgatadi.Biz o'z huquqlarimizni anglashimiz . Uni targ'ib qilishimiz va undan to'g'ri foydalanishimizda huquqiy madaniyatli inson o'z bilim , va ko`nikmalarini boshqalarga o'rgata oladi. O'z huquqiy madaniyatini boshqaqlar bilan bo'lisha oladi . Yuristlikka birinchi marta tayinlangan shaxslar o'z kasbiy bilimlari, o'quv va amaliy ko`nikmalarini mustaxkamlashi, shuningdek huquqiy madaniyatni takomilashtirishi kerak .

Huquqiy ong ko`p jihatdan moddiy va ma`naviy ne`matlarni ishlab chiqishda ishtirok etishiga, ushbu ne`matlarni taqsimlash va iste`mol qilish usullariga ko`p jihatdan bog`liq bo`ladi. Huquqiy ongni rivojlantirish uchun huquqiy ma`daniyatni ahamiyati ham yuqori chunki huquqiy ongni rivojlantirish uchun inson o`z huquqiy ma`daniyatini yaratishi va uni sayqallashi zarur. Huquqiy ma`daniyatli inson nafaqat o'z huquqiy madaniyatini rivojlanirib qolmasdan boshqalarni huqiy ma`daniyatini , huquqiy ongini rivojida o`z hissasini qo`shadi. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak,huquqiy ongli inson boshqalarga ham o`z huquqiy bilim va ko`nikmalarini o`rgatadi.O`zini tutishi , axloqini huquqiy jihatdan baholay oladi va boshqalarga ham buni tushuntira oladi. Hozirgi kunda huquqiy ongni , huquqiy ma`daniyatni rivojlantirishga katta ahamiyat berishimiz kerak , chunki huquqiy ong va ma`daniyat insonni jamiyatdagi o`rnini belgilashiga , jamiyatdagi rolini oshishiga yordam beradi. Shuningdek, huquqiy ongni rivoji jamiyat va davlatning tayanchi hisoblanadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Davlat huquq nazariyas Darslik : X Odilqoriev , I .T. Tultayev va boshqa . : prof . X.T Odilqoriev tahriri ostida . – Toshkent: "Sharq" , 2009.
2. Davlat huquq nazariyasi : darslik /H. Boboyev Darslik . –Toshkent : TDYU, 2021.
3. O'zbekiston davlati va huquqiy tarixi :Kasb – hunar kollejlari uchun o'quv qo'lan/. H.M.Muhamedov , O.T. Husanov ,B.M. muhammedov ; o'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus , kasb – hunar ta'limi markazi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012. -384 b.